

**O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIIYASI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJA BERUVCHI PhD.03/30.12.2021.San.54.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIIYASI

UO‘K: 78.036.9(575.1)

SEDIX TATYANA TOMOVNA

**O‘ZBEKISTON JAZI:
GENEZISI, TADRIJIYOTI, O‘ZIGA XOSLIGI**

17.00.02 – Musiqa san’ati

**SAN’ATSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI
(PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiya avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по искусствоведению**

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on art history

Sedix Tatyana Tomovna

О'zbekiston jazi: genezisi, tadrijiyoti, o'ziga xosligi 3

Седых Татьяна Томовна

Джаз Узбекистана: генезис, эволюция, своеобразие 21

Sedix Tatyana Tomovna

Jazz of Uzbekistan: genesis, evolution, uniqueness 39

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 43

**O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIIYASI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJA BERUVCHI PhD.03/30.12.2021.San.54.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIIYASI

SEDIX TATYANA TOMOVNA

**O‘ZBEKISTON JAZI:
GENEZISI, TADRIJIYOTI, O‘ZIGA XOSLIGI**

17.00.02 – Musiqa san’ati

**SAN’ATSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI
(PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2017.4.PhD/San40 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston davlat konservatoriyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida www.konservatoriya.uz manziliga va “Ziyonet” axborot-ta’lim portalida www.ziyonet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

G‘ofurbekov To‘xtasin Botirovich

san’atshunoslik fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ulmasov Firuz Abdushukurovich

san’atshunoslik fanlari doktori, professor

Xakimova Afrida Xodjayevna

san’atshunoslik fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.12.2021.San.54.01 raqamli ilmiy kengashning 2023 yil “___” _____ kuni soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100027, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Botir Zokirov ko‘chasi, 1-uy. Tel.: (99871) 244-46-53; faks: (99871) 244-53-20; e-mail: info@konservatoriya.uz

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat konservatoriyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100027, Toshkent, Shayxontohur tumani, Botir Zokirov ko‘chasi, 1-uy. Tel.: (99871) 244-46-53; faks: (99871) 244-53-20, ye-mail: info@konservatoriya.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil “___” _____ kuni tarqatildi.

(2023 yil “___” _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

M.A.Hamidova

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
raisi o‘rinbosari, san’atshunoslik
fanlari doktori, professor

B.Sh.Ashurov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash kotibi,
san’atshunoslik fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD)

S.B.Qosimxojayeva

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
huzuridagi Ilmiy seminar raisi,
san’atshunoslik fanlari nomzodi, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Butun dunyoda jadal tus olayotgan axborot almashinuvi va transformatsion jarayonlar ayni paytda jaz san'atiga bo'lgan ijtimoiy e'tiborni yanada orttirmoqda. Chunki san'atning bu turi jahon xalqlari hayotida sodir bo'layotgan madaniy, ma'naviy va siyosiy o'zgarishlarni hozirjavob badiiy ifodasi bilan ham ajralib turadi. Bejiz emaski, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi Ijroiya kengashining 187-sessiyasida (Parij, 2011-yil) 30-aprelni Xalqaro jaz kuni deb e'lon qildi. Endilikda jaz san'atining ilg'or tamoyillari va xilma-xil uslubdagi janrlarini tavsif etgan holda dunyo musiqa san'atida kechayotgan ijodiy jarayonlarga singdirish va keng miqyosda targ'ib qilish ishlari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon musiqa ilmida jaz tarixi hamda uning universal va turli milliy madaniyatlarga xos xususiyatlarini yoritishga qaratilgan tadqiqotlar ustuvordir. Xususan, jaz musiqasining uslub va yo'nalishlari, o'ziga xos badihago'ylik va ohanglar tizimi, garmonik faktura va ritmik xususiyatlari, uning jamoaviy va yakka ijro usul va uslublari yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, jaz guruhlari, ijrochi-musiqachilar va qo'shiqchilar faoliyatida kuzatilgan ijobiy tamoyillar muayyan bir mamlakat yoki xalq madaniyatining ajralmas uzviy qismi o'laroq tavsiflanadi. Ayni paytda ushbu musiqiy xodisaning badiiy-estetik qadriyatlarini ochib berish jarayonida kompozitorlik ijodiyotning tadriji va o'ziga xos xususiyatlarga oid ilmiy tadqiqotlar olib borish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O'zbekiston musiqa madaniyatida turli avlodlarning, ayniqsa, dunyoqarashi ko'p qatlamli zamonaviy musiqa muhitida shakllanayotgan yoshlarning ma'naviy dunyosiga kuchli ta'sir o'tkazish quvvatiga ega bo'lgan jaz san'ati tobora keng ko'lamda rivojlanmoqda. O'zbek musiqashunosligida mazkur san'atning turfa uslublari va janrlarining milliy negizda ijodiy o'zlashtirilishi masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada "Milliy estrada yo'nalishi bo'yicha fundamental, amaliy va ijodiy izlanish hamda tadqiqotlar olib borish, sohada shakllangan ijodiy maktablarning o'ziga xos ijro uslublari va an'analarini qayta tiklash va rivojlantirish"¹ eng muhim vazifalardan hisoblanadi. Binobarin, ushbu musiqiy hodisaning O'zbekistonda ilk shakllanish davri, rivojlanish bosqichlari hamda milliy asosdagi o'ziga xos xususiyatlarini atroflicha tadqiq qilinishi musiqashunoslik ilmining dolzarb muammolaridan biri bo'lib turibdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 31-maydagi PQ-3022-son "Madaniyat va san'at

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-oktabrdagi "O'zbekiston davlat konservatoriyasi huzurida Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati institutini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-5261-son Qarori. "Xalq so'zi". 2021-yil 19-oktabrdagi №215(7964)-son. – B.1.

sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 8-avgustdagi PQ-3178 “O‘zbekiston davlat konservatoriyasi faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 26-avgustdagi PQ-3920-son “O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san‘at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda ushbu faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan taktik-strategik vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon jaz san‘atining fundamental tadqiqotlari sifatida V.Konen, U.Sardjent, Dj.Kolliyer, Y.Panase, A.Batashyov, Y.Chugunov, I.Brill, V.Feyertag, A.Kozlov, Y.Kinus, F.Newton, D.Jewell, A.Hamilton, Dj.Simon asarlarini² ko‘rsatish mumkin.

Jaz san‘atining ba‘zi jihatlari O‘zbekiston etnograflari: V.Leysek, A.Eyxgorn, N.Mironov, V.Uspenskiy, E.Romanovskaya, tadqiqotchi-olimlar – san‘atshunoslik fanlari doktorlari, professorlar F.Karomatov, T.Vizgo, T.G‘ofurbekov, N.Yanov-Yanovskaya, O.Ibrohimov, san‘atshunoslik fanlari nomzodlari S.Vohidov, M.Kovbas, L.Yusupov, O.Bekov, D.Mullajonov, san‘atshunoslik bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent N.Amanova, dotsent R.Islomova, L.Obidovalarning tadqiqotlarida³ o‘z ifodasini topgan.

² Конен В. Рождение джаза. «Советский композитор». – М.: 1984. – 320 с.; Сарджент У. Джаз. Генезис. Музыкальный язык. Эстетика. «Музыка». – М.: 1987. – 296 с.; Коллиер Дж.Л. Становление джаза. «Радуга». – М.:1984. – 392 с.; Панасье Ю. История подлинного джаза. «Музыка». – Л.: 1978. – 128 с.; Баташев А. Советский джаз. «Музыка». – М.: 1972. – 177 с.; Чугунов Ю. Гармония в джазе. «Советский композитор». – М.: 1980. – 152 с.; Бриль И. Практический курс джазовой импровизации. «Советский композитор». – М.: 1979. – 112 с.; Фейертаг В. Джаз. Энциклопедия. Спб: «Скифия». – Санкт-Петербург: 2008. – 696 с.; Козлов А. Джаз, рок и медные трубы. «Эксмо». – М.: 2005. – 768 с.; Кинус Ю. Импровизация и композиция в джазе. «Феникс». – Ростов-на-Дону: 2008. – 188 с.; Newton F. The Jazz Scene. New York, Penguin Book. 1960. (Ньютон Ф. Джазовая сцена. Пер. с англ. Верменича Ю. Сиб. унив. изд-во. – Новосибирск: 2007. – 224 с.); Jewell D. Duke: a Portrait of Duke Ellington. New York. 1977. (Джоэлл Д. Герцог: Портрет Дюка Эллингтона. Пер. с англ. Верменича Ю. Сиб. унив. изд-во. Новосибирск: 2005. – 288 с.; Hamilton A. Jazz as Classical Music // Improvisation: Between Technique and Spontaneity, Edited by Marina Santi Cambridge Publishing. 2010, pp. 53-57. Simon Dj. The Big Bands. 1967. (Большие оркестры эпохи свинга. Издательско-торговый Дом “Скифия”. – Санкт-Петербург: 2008. – 616 с.).

³ Лейсек В. Чаманда гул (на правах рукописи). Трио из цикла «12 Узбекских песен (1923-1927)». ЎзФА, Санъатшунослик институти кутубхонаси; Миронов Н. Обзор музыкальных культур узбеков и других народов Востока. Издание ИНМУЗХОРУЗА. – Самарканд: 1931. – 70 с.; Романовская Е. Неопубликованное письмо Е.Е.Романовской от Б.В.Асафьева // Статьи и доклады. Записи

Jazning muayyan ko‘rinishlari kompozitorlar – K.Abdullayev, Sh.Ramazonov, V.Saparov, E.Salixov, U.Salixov, N.Norxo‘jayev, A.Mansurov, A.Ikromov, D.Amanullayeva, O.Abdullayeva, M.Otajonov, J.Karomatov ijodida namoyon bo‘lishi ham ko‘rib chiqildi⁴.

M.Toshmatov, Y.Gulzarov, S.Gilyov, V.Safarov, O.Djumayev kabi jaz musiqachilarining ushbu san‘at turi bo‘yicha kuzatuvlari o‘ta ahamiyatlidir. Tadqiqot uchun musiqiy material sifatida ushbu jarayonning asosiy stilistik tamoyillarini aks ettiruvchi turli janrdagi jaz asarlari saralab olindi.

Bugungi kungacha O‘zbekiston jaz fenomenini kompozitorlik ijodiyoti va ijrochilik amaliyoti, musiqiy ta‘lim tizimi bilan chambarchas bog‘liq holda, jazning shakllanishi va tadrijiyotini tarixiy retrospektiv_kesimda ko‘rib chiqish, o‘ziga xosligini aniqlashga qaratilgan maxsus tadqiqot mavjud emas edi.

Jaz o‘zining paydo bo‘lishi davridayoq (XIX-XX asrlar) jahonning yetakchi kompozitorlardan AQSHda – J.Gershvin, Yevropada – A.Dvorjak (“Yangi dunyodan” simfoniyasidan boshlab), K.Debyussi, M.Ravel, I.Stravinskiy, D.Miyo, Rossiyada – D.Shostakovich, A.Sfasman, I.Dunayevskiy, Gruziyada – G.Kancheli, Dog‘istonda – M.Kajlayev va boshqalarning ijodiy e‘tiborini tortdi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston davlat konservatoriyasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “XX-XXI asr

музыкального фольклора. Государственное Издательство Художественной Литературы УзССР. – Т.: 1957. – 288 с.; Кароматов Ф. Узбекская инструментальная музыка. Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма. – Т.: 1972. – 360 с.; Вызго Т. Обработка народных песен // История узбекской советской музыки. Том 1. (1917-1945). Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма. – Т.: 1972. – С. 57-67; Гафурбеков Т. «Эстрадизация» узбекского фольклора: Pro et contra. Сайланма – Избранное. «Musica» нашриёти. – Т.: 2009. – С. 138-141; Гафурбеков Т. Фольклорные истоки узбекского профессионального музыкального творчества. «Ўқитувчи». – Т.: 1984. – 118 с.; Вахидов С. Узбекская советская песня. Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма. – Т.: 1976. – 140 с.; Ковбас М. В.В.Лейсек в Узбекистане (Страницы из истории развития музыкальной культуры) // Вопросы музыкальной культуры Узбекистана. Издательство художественной литературы имени Гафура Гуляма. – Т.: 1969. – 212 с.; Юсупов Л. Узбекистан // Советский джаз. Проблемы. События. Мастера. «Советский композитор». – М.: 1987. – С. 485-495; Беков О. Современная узбекская эстрадная песня в контексте музыкальной культуры Узбекистана. (Рукопись). Библиотека НИИ Искусствознания РУз. инв. №931. – Т.: 1994. – 123 с.; Мулладжанов Д. Узбекская музыкальная эстрада периода Независимости // Anthropological Studies on the Structural Transitions of Ethnic and For Regional Communities in Post-Socialist States National Museum of ethnology. Soka. 2003. March. p.p. 127-138; Аманова Н. Национальная специфика узбекской эстрадной музыки в контексте развития жанров // Автореф. дисс. доктора философии (PhD) по искусствоведению. – Т.: 2019. – 42 с.; Амануллаева Д.Д., Аманова Н.А. История джаза и эстрадной музыки. Санъат. – Т.: 2010. – 236 с.; Абидова Л. История джаза и современных эстрадных музыкальных стилей. Издательско-полиграфический творческий дом «Уқитувчи». – Т.: 2007. – 128 с.
⁴ Салихов Э. Джазовая импровизация для фортепиано. «Bilim». – Т.: 2005. – 210 с.; Mansurov A. Cholg‘ulashtirish (aranjirovka asoslari) boyicha amaliy namunalar va mashq-topshiriqlar (Estrada-simfonik orkestri). Практические примеры и задачи по инструментовке (основы аранжировки). ГКУз. – Т.: 2015. – 100 с.; Сапаров В. «24 прелюдии для фортепиано (в джазовом стиле)». ГКУз. – Т.: 2010. – 92 с.; Гилёв С. Беседы о джазе. «Contur». – Т.: 2008. – 165 с.; Сафаров В. С джазом по жизни... «Meriyus». – Т.: 2013. – 135 с.; Karomatov Dj. Fortepiano: Jaz va estrada fortepiano san‘ati. G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – Т.: 2003. – 104 b.

kompozitorlik ijodiyotini tarix va zamonaviylik kesimida o‘rganish” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonda jaz san’atining milliy musiqa va mumtoz jaz an’analari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan zamonaviy musiqa madaniyatining o‘ziga xos hodisasi sifatida ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

O‘zbekistonda jaz san’atining ilk shakllanish davri va tadrijidagi eng muhim bosqichlarini aniqlash;

o‘zbek jazining o‘ziga xosligi va tasnifiy xususiyatlarini yoritib berish;

o‘zbek jazi ijodkorlari va ijrochilari faoliyatini tavsiflash;

O‘zbekistonda jaz san’atining bugungi holatiga baho berish, jaz – festivallar, tanlovlar, mahorat darslari, xorijiy jaz musiqachilarining respublikamizda, va aksincha, mahalliy ijrochilarning yaqin va uzoq xorijdagi gastrollarining ahamiyatini aniqlash hamda jaz san’atida shakllangan ilg‘or an’analarni saqlash hamda yangi tamoyillarni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obykti sifatida O‘zbekistonda jaz san’atining shakllanish davridan shu kungacha davom etayotgan rivojlanish jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmetini o‘zbek jazining janr va shakllari tarixi, uning uslubiy parametrlari, milliy etno-jazning o‘ziga xos namunalari, Respublika va Xalqaro festivallar xronikasi, bu noyob san’atni o‘zlashtirishning pedagogik tamoyillari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, nazariy, kompleks, tizimli, kontekstual va axborot-statistik tahlil kabi usullar qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston kompozitorlarining jaz asarlari va jaz jamoalarining ijrochilik faoliyatiga xos bo‘lgan badiha uslub va afro-amerika musiqa janrlarida tipologik mavjudligi isbotlangan;

o‘zbek jazining milliy zamini negizida asarlarning ijro talqini shakllanishi, badihago‘ylik tamoyili jazning asosiy mezonini o‘laroq ritm, kuy, lad-garmonik badiiy vositalari barobarida aranjirovka, yangicha tusdagi tovush-jarangi, innovatsion cholg‘ular tarkibi kabilar yuzaga kelishida ustuvor ahamiyatga egaligi aniqlangan;

O‘zbekistonda jaz san’atining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari milliy musiqiy qadriyatlar va dunyo madaniyatlari bilan bog‘liq holda amalga oshgani aniqlangan;

tinglovchilarning badiiy didini shakllantirishda etnik badiiy uslublarning muhim o‘ringa egaligi ritmik usul va melizmlar orqali dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ta’lim jarayonida talaba yoshlarni jaz san’atining uslub va janrlari bilan yaqindan tanishtirish, ularning ijro etadigan repertuarini kengaytirish va ijro mahoratini oshirishga xizmat qiladigan tavsiya va takliflar ishlab chiqilgan;

oliy o'quv yurtlari va o'rta kasbiy ta'lim muassasalarida "Estrada va jaz musiqasi tarixi", "Jazning zamonaviy muammolari", "Jaz improvizatsiyasi" "Jaz garmoniyasi", "Jaz fortepiano", "Jaz aranjirovkasi" kabi nazariy va tarixiy fanlar bo'yicha, shuningdek, "O'zbek musiqasi tarixi" (bakalavriat), "O'zbekiston musiqa madaniyati" (magistratura) kabi fanlar kesimida darsliklar, uslubiy va o'quv qo'llanmalar yaratilgan;

O'zbekiston davlat konservatoriyasining "Musiqa tarixi va tanqidi" kafedrası, B.Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati institute "Estrada cholg'u ijrochiligi" kafedrası, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining "Musiqiy-nazariy fanlar" kafedralarida "Musiqa san'ati" fanlariga oid darslik va o'quv qo'llanmalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi olingan xulosalarning jahon san'atshunosligi, musiqashunoslik sohasining sinalgan metodlari va nazariy yondoshuvlari qo'llanilganligi, ijodiy jarayonlarni kuzatish natijalariga asoslanganligi, shuningdek, zamonaviy ijodiy jarayonni shaxsiy kuzatuvlardan foydalangan holda ilmiy-nazariy xulosalarga oid misollar, maxsus adabiyotlar, arxiv materiallari, ijodkorlar bilan suhbatlar, muhokamalar, konsert va festival bayonnomalaridan foydalanish bo'yicha tavsiya va takliflar amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, chiqarilgan nazariy xulosalar musiqashunoslik ilmidagi mavjud ma'lumotlarni kengaytiradi, shuningdek, o'zbek jaz san'atida mavjud tamoyillar, an'analar va zamonaviy uslublarni yangi darajada anglash va tadqiq etish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ijodkorlik va ijrochilik san'atlari doirasini kengaytirishga, shuningdek oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari talabalari uchun maxsus kurslar bo'yicha o'quv dasturlari, o'quv qo'llanmalari va darsliklar yaratish jarayoniga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekistonda jaz san'atining shakllanish va rivojlanish bosqichlarini o'rganish jarayonida olingan tadqiqot natijalariga ko'ra quyidagilar amalga oshirildi:

O'zbekiston kompozitorlarining jaz asarlari va jaz jamoalarining ijrochilik faoliyatiga xos bo'lgan badiha uslubi va afro-amerika musiqa janrlarida mavjud tipologik umumiyligi yuzasidan xulosa "Fortepiano" o'quv qo'llanmasida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil 27-martdagi 274-son guvohnomasi). Natijada talabalarning jaz san'ati, O'zbekiston jazi, o'zbek etno-jazi tarixi sohalarida asosli manbalarga ega bo'lishlariga xizmat qilgan;

o'zbek jazining milliy zamini negizida asarlarning ijro talqini shakllanishi, badihago'ylik tamoyili jazning asosiy mezonini o'laroq ritm, kuy, lad-garmonik badiiy vositalari barobarida aranjirovka, yangicha tUSDagi tovush-jarangi, innovatsion cholg'ular tarkibi kabilar yuzaga kelishida ustuvor ahamiyatiga oid takliflar

«O‘zbekiston 24» radio kanalida uzatilgan «San’at dunyosida» dasturida «O‘zbekiston jazi: kecha va bugun» mavzusidagi eshittirishning ssenariysi va dasturini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi «O‘zbekiston 24» teleradiokanali davlat muassasasining 2022-yil 4-apreldagi №03-09-183-son ma’lumotnomasi). Natijada eshittirishda foydalanilgan dissertatsiya materiallari o‘zbek tinglovchilarning O‘zbekiston jazi, xususan o‘zbek etno-jazi sohasidagi bilimlarini kengaytirishga yordam bergan;

O‘zbekistonda jaz san’atining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari milliy musiqiy qadriyatlar va dunyo madaniyatlari bilan bog‘liq holda amalga oshgani aniqlanganligiga oid taklif O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi faoliyatida qo‘llanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2021-yil 26-noyabrdagi №05-11-10-2150 ma’lumotnomasi). Natijada o‘zbek jaz san’atidagi tashkiliy-ijodiy jarayonlarni o‘rganish, Respublika va Xalqaro festivallar, qo‘shma jaz jem-seyshnlarni tashkil etish imkonini yaratgan;

tinglovchilarning badiiy didini shakllantirishda ritmik usul va melizmlar orqali etnik badiiy uslublarning muhim o‘ringa egaligi yuzasidan takliflar O‘zbekiston kompozitorlar va bastakorlar uyushmasi ijodiy-tashkiliy faoliyatni takomillashtirishda qo‘llanilgan (O‘zbekiston kompozitorlar va bastakorlar uyushmasining 2019-yil 12-apreldagi 01-04/71-126-son ma’lumotnomasi). Tadqiqot natijalari yangi ijod etilgan asarlarda o‘zbek milliy ohanglarning o‘ziga xosligini saqlash hamda o‘quv repertuarini boyitish jarayonlariga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 13 ta Respublika va 12 ta Xalqaro konferensiya, seminarlarda, dissertant tomonidan ikkita o‘quv qo‘llanma, ilmiy maqolalar, xorijiy jurnal va to‘plamlarda chop etilgan ilmiy maqolalarda sinovdan o‘tkazildi, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining ilmiy-pedagogik amaliyotida o‘z aksini topgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 55 ta ilmiy ishlar chop etilgan bo‘lib, ulardan 8 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan jurnallarda, jumladan Respublika jurnallarida 5 va Xalqaro jurnallarda 3 ta ilmiy maqolalar chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, yetti paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning asosiy matni 145 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirishda mavzuning dolzarbligi asoslab berilgan hamda ishning maqsadi, vazifalari, tadqiqot predmeti va obekti, muammoni o‘rganish, ilmiy yangilik va amaliy natijalar, ularni hayotga tadbiq etish, dissertantning nashr etilgan ishlari va dissertatsiya tuzilishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Genezis: O‘zbekiston jazining paydo bo‘lish tarixidan**” deb nomlangan birinchi bobida ikki paragraf bo‘lib, unda O‘zbekiston jazining ilk qadamlari va shakllanishi belgilab berilgan, dastlabki tajribalar tahlil qilingan. Bobning maqsadi – O‘zbekistonda jaz san‘atining vujudga kelish bosqichlari va jarayonlari hamda jaz musiqasining asosiy shakllari va janrlarini yaratishga turtki bo‘lgan shart-sharoitlarni retrospektiv tarzda o‘rganish.

Dissertatsiya muallifi bir qator vazifalarni qo‘yadi, ulardan eng muhimlari:
o‘zbek jazi shakllangan muhitning umumiy tavsifi;

O‘zbekiston va ayniqsa, Toshkent musiqa hayotidagi yorqin voqealarni yoritish;

estrada va jaz orkestrlarining rolini belgilash;

sozanda-ijrochilar, kompozitorlar faoliyatini tahlil qilish.

“Ildizlar” nomli §1.1. paragrafta Sharq olimlari risolalarida mavjud uslubiy jihatdan sababchi omillar ko‘rib chiqilgan. Al-Xorazmiy ta‘limoti zamonaviy jaz tafakkuri uchun ahamiyatli bo‘lgan algoritmik dasturlar, grafik sxemalar, ritmik formulalar ishlab chiqishga asoslangan. Algebraik usullardan turli amaliy masalalarni, shu jumladan musiqaga oid masalalarni yechishda foydalanish mumkin. Jaz kompozitsiyasini tuzish mantig‘i uning strukturaviy yaxlitligini ta‘minlaydi, raqam bilan belgilash esa alteratsiyalangan, xromatik septakkordlarning garmonik ketma-ketligining musiqiy sadolanishini asosliligini ko‘rsatadi. Harf yoki raqam bilan belgilangan jaz akkordi tarkibidagi har bir notani “ko‘tarish” yoki “tushirish” orqali o‘zgarishi mumkin, va natijada yangi akkordlar paydo bo‘ladi⁵.

Raqamlar ko‘rinishida taqdim etilgan garmonik ketma-ketliklarning grafik sxemalari turlichadir. Jon Lyuisning “Django” kompozitsiyasi⁶ quyidagicha ko‘rinishga ega:

4/4 Fm | Bm Am Bm | C⁹ | Fm Em/F Fm | ...

yoki

4/4 Fm | Bm Am Bm | C⁹ | Fm Em/F Fm | ...

Bizning davrimizda E.Salixovning “Jaz vals” fortepiano asarining algoritmik sxemasi o‘zgachadir⁷:

3/4 Dm⁷ | G_{9/6} | C⁶ Dm Cmaj | Am⁷ | Dm⁶ | ...

Hm Am | Dm⁷ G⁷ | F⁶ G⁷ | C⁶ Cmaj | Am⁷ | ...

⁵ Сираждинов С.Х., Матвиевская Г.П. Аль-Хорезми – выдающийся математик и астроном средневековья. “Просвещение”. – М.: 1983. – 79 с.

⁶ Салихов Э. Джазовая импровизация для фортепиано. “Bilim”. – Т.: 2005. – С. 9.

⁷ Там же – С. 10.

Jazda raqamli musiqa asosiylardan biriga aylanib bormoqda. “Zamonaviy dunyoda “raqamli” iborasi axborotning alohida shaklini – ya’ni, uni saqlash, ko‘paytirish va uzatishning yangi usullarini o‘z ichiga olgan shaklni anglatadi”⁸.

Boy ma’naviy ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan jaz musiqasi algoritmlash yordamida tinglovchilarning estetik ehtiyojlarini yanada ko‘proq ifodalashi, ularni go‘zallik olamiga yetaklashi mumkin.

Jazda muvaffaqiyatli qo‘llaniladigan o‘zga algoritmlar ichida, fikrimizcha, strukturaviy blok-sxema va grafik diagrammalar ustuvor hisoblanadi.

Jazning eng muhim birligi – korus (Horus⁹) ijrochi tomonidan ma’lum miqdordagi taktlarga joylashtirilgan garmonik ketma-ketlikni bildiradi. Jaz kompozitsiyasi orqali kvadratlar asosida yaratilgan algoritm muayyan rivojlanish mantig‘iga ega bo‘lgan harf-raqamli formulalar bilan ifodalanishi mumkin. Shunday qilib, kvadrat¹⁰ tushunchasi jazda algoritmik dasturlarni ishlab chiqish uchun asosiy tushunchalardan biridir.

Forobiyning musiqiy tipologiyalar tasnifi eshitish sezgilariga asoslangan. U musiqani zavq bag‘ishlovchi, hayajonli ehtiroslar va odamning fikrlarini uyg‘otuvchi kabi uch turga bo‘lgan.

Olimning ritmlar tasnifidagi “tezkor”, “yengil”, “og‘ir” kabi dastlabki fikrlari zamonaviy jazning improvizatsiya jarayoni uchun ham dolzarbdir.

Alisher Navoiy xonanda, sozanda uchun ham, bastakor uchun ham katta uslubiy ahamiyatga ega bo‘lgan ijodiy masalalarni – aqlning idroki, musiqaning hissiy ta’siri, ma’naviy tarbiyasi, barkamol va har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirish masalalarini ko‘targan¹¹.

O‘zbek jazining genezisi mavzu va strukturaviy xususiyat va janrlarning o‘zaro kirishuvi, ritmik va intonatsion uyg‘unligidan iboratdir. Jahon madaniyatlari bilan o‘zaro uyg‘unlikda va boyitishda rivojlanib, ma’naviy tarbiya jarayoniga hissa qo‘shib kelayotgan o‘zbek jazining genezisini chuqur milliylik nazaridan anglash zarur. Shu munosabat bilan ushbu bandda kompozitorlar tomonidan o‘zbek xalq qo‘shiqlarining dastlabki aranjirovkalariga alohida e’tibor qaratilgan bo‘lib, unda o‘zbek va afro-amerikalik musiqa janrlaridagi tipologik umumiylik ochib berilgan. Bu yerda xalq kuylari – “Usmoniya”, “Baljuvon”, “Rajabiya”¹², “Munojot”,

⁸ Даукеева С. Философия музыки Абу Насра Мухаммада аль-Фараби. Фонд Сорос-Казахстан. – Алматы: 2002. – С. 190.

⁹ Korus – ingliz. Horus – kvadrat – jazga xos badihali-band shakl bo‘limi. Asl shaklni o‘zida saqlab qolgan improvizatsiya va reprizaning alohida bo‘g‘inlari xorus tushunchasiga mos keladi; bir qator xoroslardan jaz asarining umumiy shakli yuzaga keladi.

¹⁰ Kvadrat – ingliz. Square – jazda muayyan hajmdagi (sakkiz taktlik, o‘n ikki taktlik, o‘n olti taktlik va boshqalar) tugal funksional-garmonik tuzilma bo‘lib, bu improvizatsiya qilinadigan mavzuning asosini tashkil qiladi va u butun asar davomida ko‘p marta o‘zgarishsiz takrorlanadi.

¹¹ Навои А. Сочинения в десяти томах. Том VI. ФАН УзССР. – Т.: 1968. – С. 263; Том IX-X. ФАН УзССР. – Т.: 1970 – С. 39-41, 47; – С. 27.

¹² To‘g‘rirog‘i “Rajabiy”ni XIX asr farg‘onalik bastakori Rajabiy yaratganligi aytiladi.

“Muxayyari Munojot”¹³, “Savti Munojot”, “Chamanda gul”¹⁴ va ularning badiiy o‘zlashtirilishi, shuningdek, xalq amerika blyuzlari «Trouble in Mind», «Darlin», «How Long?» kabi misollar tahlil qilingan.

§1.2. paragrafda “Ilk tajribalar” birinchi o‘zbek estrada orkestrlari faoliyati nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi. Xorijiy jaz ijrochilarining O‘zbekistonda ilk chiqishlari bilan bog‘liq faktologik materiallar tizimlashtirilgan, mahalliy musiqachilar va tinglovchilarda jazga qiziqish uyg‘onishiga, milliy kuylar asosida jaz improvizatsiyasi san‘atini rivojlantirishga intilishlariga bo‘lgan ta’siri ko‘rsatiladi. Bu jarayonda, ayniqsa, milliy xonanda va sozandalar, eng avvalo, o‘zbek musiqa san‘atini xorijda namoyish qilgan M.Qori-Yoqubov, T.Xonimlar faoliyati alohida ahamiyat kasb etdi.

1930-yillar ovozli filmning paydo bo‘lishi, o‘zbek va Yevropa madaniyatlari o‘rtasidagi aloqalarning kengayishi, havaskor jaz ijrochiligining rivojlanishi bilan nishonlandi. Dissertant raqs jaziga e’tibor qaratadi, amerikalik qo‘shiqchi S.Kool (1936) misolida xorijiy jaz musiqachilarining gastrollarini tahlil qiladi.

Bu davrda yuz bergan voqealar orasida “O‘zdavteleradio”ning estrada-simfonik orkestrining tashkil etilishi alohida ajralib turadi. Jaz jamoalari ochiq maydonlarda, Farg‘ona va Namangan shaharlaridagi klublarda chiqishlar qiladi. Birinchi simfojaz Samarqandda N.Zinin rahbarligida (1944) tashkil etildi. Sh.Ramazonov, D.Shtern, V.Koptevskiy, SH.Isanbayev, L.Suxov, N.Slyozkin, A.Kroll, Y.Jivayev, Y.Jivayevlar kabi yetakchi musiqachilarga, ularning ijrochilik va tashkilotchilik faoliyati tavsiflanadi, L.Utesovning jaz-orkestrining gastrollari O‘zbekiston jaz musiqachilari uchun ahamiyati ko‘rsatib beriladi.

Dissertantning diqqat-e’tibori, shuningdek, Rossiya, Ukraina, Litva, Armaniston, Gruziyaning taniqli jaz jamoalarining respublikamizdagi chiqishlari (1920-1940)ga qaratilib, ularning O‘zbekistonda jaz musiqasining jadal rivojlanishiga hissa qo‘shganligi, uni qimmatli yangiliklar bilan boyitganligi va shu yo‘sinda o‘zbek milliy jaz san‘atining yanada rivojlanishiga turtki bo‘lganligi e’tirof etiladi.

Dissertatsiyaning **“Jaz madaniyati evolyusiyasi (XX asrning ikkinchi yarmi – XXI asr boshlari)”** ikkinchi bobida o‘zbek jaz taraqqiyotidagi yangi tamoyillarni o‘rganuvchi ikkita paragraf mavjud. Tizimli yondashuv ushbu tarixiy davr mobaynida milliy jazning tadriji va shakllanishini aniq ko‘rsatish imkonini beradi.

“Rivojlanish tamoyillari va ifoda vositalari” nomli §2.1. paragrafda xronologik tartibda (1950-yildan boshlab) xalqaro miqyosda e’tirof etilgan xorijiy

¹³ To‘g‘rirog‘i “Muxayyari Munojot”.

¹⁴ Kompozitorlar ijodida asar nomidagi “Chamanda gul” iborasi alohida yoziladi. Ammo “Chamandagul” yaxlit imlosining bir varianti mavjud (Тўпгул бўлиб очиладиган, гуллари оқ, қизил, пушти, сарик, бинафшаранг ўтсимон ўсимлик. Чамандагул манзарали ўсимлик сифатида уйларда, кўп қаватли уйларнинг балконларида, боғ ва хиёбонларда етиштирилади – Т.С.). «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», 9-жилд. Давлат илмий нашриёти. – Т.: 2005. – 16 Б.; Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж. IV. Давлат илмий нашриёти. – Т.: 2020. – 453 Б.

musiqachilarning gastrollari – Benni Gudman (1962) va Ellinoy (1969) Amerika jaz-orkestrlari muhim voqealar sifatida yoritiladi. Toshkentdagi Y.Sverdlov nomidagi teatr sahnasida o‘tkazilgan ikkita konsertda O.Kamolxo‘jayevning (doyra) ishtirok etganligini alohida ta’kidlash joiz.

O‘zbekistonda jazni jamoaviy ijro etishda yangi yo‘nalishlarning paydo bo‘lishi atoqli xonanda Botir Zokirov va jazning shakllanishiga hal qiluvchi hissa qo‘shgan sulolaning boshqa vakillari – Luiza va Naufalning ijodiy faoliyati bilan bog‘liq. “Sindbad dengizchining 1973-chi sayohati” myuziklining sahnalashtirilishi va gastrollari alohida ta’kidlanadi.

O‘nlab yillar davomida musiqa jamoatchiligi va musiqashunoslar nazaridan chetda qolib ketgan qator jaz musiqachilarining faoliyati tahlil qilindi. Musiqa san’atining rivojlanish dinamikasida O‘zbekiston jazini targ‘ib qilishga, uning jahon miqyosida tan olinishiga beqiyos hissa qo‘shgan boshqa sulolalar – Isanboyevlar, Salihovlar, Jivayevlar, Gilyov va Semizvonkinalar, Tratsevskiylar, Safarovlar, Saparovlar, Toshmatovlar, Mustayevlar, Ugaylarning o‘rni va ahamiyati o‘rganib chiqildi.

“Jaz O‘zbekiston kompozitorlari ijodida” deb nomlangan §2.2. paragrafda dissertant XX asrning 2-yarmi – XXI asr boshlaridagi jazning istiqbolini kompozitorlik ijodiyotining yorqin namunalari (SH.Ramazonov, E.Salihov va U.Salihov, X.Azimov, V.Saparov, A.Mansurov, N.Norxo‘jayev, D.Amanullayeva, O.Abdullayeva, M.Otajonov, A.Nabiyevlar), shuningdek, o‘zbek xalq kuylarining jaz uslubidagi aranjirovkasi sifatida maydonga kelgan yangi janrning tug‘ilishi jabhalarida qarab chiqadi.

O‘zbek etno-jazi¹⁵ O‘zbekiston zamonaviy musiqa san’atining muhim uslubiy yo‘nalishi sifatida gavdalanadi. Uning milliylik bilan sug‘orilgan badihago‘yiligi o‘zbek musiqa an’analarining umumjahon jaz musiqasi bilan organik sintezi kabi murakkab va dolzarb muammoni ilgari suradi.

Uch paragrafdan iborat **“O‘zbek jazining o‘ziga xosligi”** nomli uchinchi bobda O‘zbekiston etno-jazining o‘ziga xosligini ta’minlovchi jarayonlariga e’tibor qaratilgan. “Etno-jaz – milliy madaniyat fenomeni” nomli §3.1. paragrafda Mustaqillik yillarida jaz kasbiy maqomga ega bo‘ldi, davlat ahamiyatiga molik ishga aylandi, jahon sahnasiga kirib borish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Asl ma’naviy qadriyatlarni tiklash, kompozitorlar va jaz ijrochilarining hayot yo‘llarining ilgari noma’lum bo‘lgan sahifalarini yoritish mumkin bo‘ldi.

Etno-jazning o‘ziga xos turi sifatida O‘zbekistonda mustahkam o‘ringa ega bo‘ldi. Noyob hodisa sifatida u nafaqat respublikamiz, balki dunyoning ko‘plab mamlakatlari musiqa ijodida ham tarixiy ahamiyatga ega ekanligini alohida ta’kidlash lozim. Etno-jaz etnofolklor, Sharq og‘zaki an’anadagi kasbiy musiqasi va zamonaviy badiha san’ati elementlarining organik qorishmasi sifatida ajralib turadi.

¹⁵ Etno-jaz – ingliz. ethno, exotic jazz – jahon jazi nomi bilan mashhur bo‘lib, 1950-60-yillarda yaratilgan jaz va jahon musiqasining kichik janri bo‘lib, an’anaviy jaz va sharqona musiqiy elementlarning uyg‘unligi bilan keng ajralib turadi. Qarang: <https://ru.wiktionary.org/wiki/>

Akademik B.V.Asafyev o'zbek folklor musiqasiga xos xususiyatlardan noyob sinkopa texnikasi, usul va melizmlarga boyligini ta'kidlaydi-ki, bu o'z navbatida bevosita jazning sinkopali ritmikasi (glissandolash – T.S.) xususiyatlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin¹⁶.

O'zbekiston jazining rivojlanish jarayonini ko'rib chiqish asnosida Farg'onada o'tkazilgan jaz festivallarni alohida ta'kidlash joiz¹⁷. Butunittifoq nufuziga ega bo'lgan aynan shu festivallar o'zbek milliy kuylari asosida jaz asarlari yaratilishiga katta turtki bergan edi. Farg'ona festivallarida erishilgan yutuqlar nafaqat O'zbekiston, balki boshqa respublikalar jaz musiqachilarida ham qiziqish uyg'otgan yangi uslub – etno-jazning kashf qilinishiga olib keldi. Bu hol jaz musiqachilari va jamoalarining shakllanishiga, ularning kasbiy va ijodiy yuksalishiga hissa qo'shdi. Festivalarda taqdim etilgan original kompozitsiyalar o'zbek jaziga asos bo'lib, etno-jazning “Markaziy Osiyo to'liqini”¹⁸ni yuzaga keltirdi.

Yuqorida aytilgan fikrlarning tasdig'i sifatida S.Gilyov rahbarligidagi “Turkiston yulduzchasi” kvinteti, I.Alyoshinning jamoasi, L.Atabekov rahbarligidagi “Sato” jaz jamoasi, “Inter” jaz ansambli kabi o'zbek jaz jamoalarini tilga olish mumkin.

O.Gotskozik rahbarligidagi Toshkent jaz klubi yakkaxonlar kvinteti ijrosidagi “Sharq syuitasi” festivalda ijro etilgan durdona asarlardan biri bo'ldi. Festivalda taqdim etilgan dasturli syuita – sakkiz qismdan iborat jamoaviy kompozitsiya bo'lib, unda har bir musiqachi ma'lum qismning muallifi hisoblanadi¹⁹. U mutaxassislar va jaz shinavandalari orasida keng shuhrat va yuksak bahoga sazovor bo'lib, milliy diskografiyada sharaflil o'rinni egalladi.

Etno-jaz uslubining o'ziga xosligini ochib berish O'zbekiston kompozitorlarining jaz kompozitsiyalarini aranjirovkalash, tovush-ohanglarni ishlatish usullari, turfa zamonaviy ijro texnikalaridan foydalanish bilan bog'liq. Yakkaxon hamda jaz ansambllari ijrochiligini tavsiflash dolzarbdir. Darhaqiqat, o'zbek musiqasi kabi jaz ham og'zaki an'anaga asoslanadi. Etno-jazda xalq og'zaki ijodi, cholg'ularning tovush boyligi, xalq dostonchilari, sozandalari, baxshilar san'ati yangicha ochib beriladi. O'zbek an'anaviy ijrochilik madaniyati bilan jazni xalq xonanda va ijrochi sozandasi hamda jaz xonanda va cholg'u ijrochisiga xos umumiy xususiyat – improvizatsiya qobiliyati birlashtirib turadi. Dissertant etno-jazni o'zbek musiqasi san'atining ushbu sohasini sifat jihatidan yangi bosqichga

¹⁶ Романовская Е.Е. Статьи и доклады. Записи музыкального фольклора. Государственное издательство Художественной Литературы УзССР. – Т.: 1957. – С. 25.

¹⁷ 1968 yili Farg'onada respublika jaz festivali, 1977, 1978, 1984 yillarda esa Butunittifoq miqyosidagi festivallar bo'lib o'tdi.

¹⁸ Гилёв С. Беседы о джазе. «Contur». – Т.: 2008. – С. 63.

¹⁹ Qismlardan birinchisi “Prelyudiya” va yakuniysi “Meditatsiya” (O. Gotskozik), boshqalari – “Afsona” (R.Ilyasov), “Alla” (Y.Parfenov), “Lapar” (K.Dobrovolskiy), “Darvesh raqsi” (S.Gilyov). 1983 yilda “Sharq syuitasi” birinchi marta Butunittifoq “Melodiya” ovoz yozish kompaniyasining Toshkent filiali tomonidan yozib olindi.

ko'tarish imkonini beruvchi, ifoda imkoniyatlarini kengaytiruvchi istiqbolli yangi yo'nalishlardan biri sifatida ajratib ko'rsatadi²⁰.

Musiqiy tafakkurning yangilanish jarayoni (etno-jaz) V.Saparov, E.Salixov va U.Salixov, N.Norxo'jayev, M.Otajonovlar ijodida o'z ifodasini topadi. Namunalar sifatida V.Saparovning "Jaz chalamiz", "Barbi uchun Regtaym", fortepiano uchun jaz uslubida "24 ta prelyudiya", saksofon kvarteti, fortepiano va simfonik orkestr uchun Kaprichchio, ikkita saksofon, fortepiano, marimba, bas gitara va simfonik orkestr uchun "Dialoglar" (Koncherto Grosso), E.Salihovning "Bossa nova", N.Narxo'jayevning "Jaz vals", M.Otajonovning "Choyxona", Z.Xodiyevaning "Blyuz" asarlari tanlangan.

Tarixiy rivojlanishning yangi bosqichida yosh iste'dodli jaz ijrochilarining nomlari paydo bo'lib, butun dunyoda katta qiziqish uyg'otmoqda. Dissertatsiyada S.Nazarxonning xorijdagi muvaffaqiyatlari o'zbek musiqqa madaniyatining jahonda tan olinishining qayta tiklanayotganlik fakti sifatida e'tirof etiladi. Jaz rivojlanishining navbatdagi bosqichida Big-bend va ularning yetakchilari – M.Toshmatov, B.Murtazoyev, V.Kurnitskiy, A.Xabirxanov, X.Nazarov, A.Nazaryan, I.Azarenko, S.Muradov, V.Safarov, O.Djumayevlarning tashkiliy, ma'rifiy va ijrochilik faoliyatlari muttasil tus olmoqda.

O'zbek etno-jazini targ'ib qilishga qaratilgan "So'g'diyona" davlat xalq cholg'u asboblari kamer orkestrining jaz loyihalarining amalga oshirilishi katta ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston kompozitorlarining jaz asarlarini ijro etish favqulotda ahamiyatga egadir. Badiiy rahbar va dirijyor F.Abduraximova etno-jazda orkestr jarangiga xos nyuanslarni to'g'ri aks ettirgan holda bir qator asarlarni aranjirovka qildi. "Turkiston" saroyida (2010) bo'lib o'tgan konsert dasturida xorijlik jaz musiqachilari, Germaniyalik A.Yansening Jaz-triosi bilan ijodiy hamkorlikda amalga oshirildi. E.Salixov variantidagi "Qiz bola", Sh.Ramazonov aranjirovkasidagi "Namangonning olmasi", V.Saparovning "Qilpillama yorim, qilpillama", I.Akbarov kuyiga "Parafraz", "Qaydasan" kabi sharqona musiqiy jozibadorlik va xalq cholg'ularining tembr rangbarangligini ochib beruvchi o'ziga xos ritmik, parda-ohang imkoniyatlariga ega asarlari yangradi.

O'zbekistonda etno-jazni rivojlantirish istiqbollari shubhasiz. Jaz ijrochiligining o'ziga xosligi bugungi kun o'zbek musiqachilarining san'atida namoyon bo'lmoqda. Qozog'istonda bo'lib o'tgan "Janubiy kechalar – 2008" Ikkinchi Xalqaro jaz musiqasi festivalida "Sharq folklorining ritmik va garmonik xususiyatlari mujassam yuksak professional mahorat va kompozitsiya" uchun diplomlar Y.Gulzarov, "Arsax" jaz ansambli V.Safarov, "Quyosh shahri" jaz kvarteti (ikki davlat hamdo'stligi – Qozog'iston va O'zbekiston) – yetakchi D.Andronov (fortepiano) va B.Mamekov (bas gitara, Chimkent); B.Mustayev (saksofon) va I.Dimov (zarbli asboblari, Toshkent). O'zbekiston davlat

²⁰ См. Иброҳимов О.А., Кароматли Ф.М., Юнусов Р.Ю. Халқ муסיқа ижодиёти // Ўзбекистон санъати (1991-2001) "Шарк" нашриёти матбаа акциядорлик компанияси бош тахририяти. – Т.: 2001. – 107-108 бб.

mustaqilligiga bag'ishlangan (2008) "Saksofon-marafon" festivali dasturlariga "Jaz-kurash"lari kiritilgan bo'lib, unda O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist Y.Gulzarov o'zining ijro mahorati, artistizm, repertuar boyligi va O'zbekistonning "Tillo saksofoni"ga xos shaxsiy jozibadorligi bilan faol ishtirok etdi.

